

TARIXIY TADQIQOTDA NAZARIYANING O'RNI

R. Rajabov

Ilmiy rahbar Tarix o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, ffn

O. N. Saidov

NavDPI Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (tarix) mutaxassisligi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7071943>

Annotatsiya. Maqolada tarix fanining hozirgi zamondagi ahamiyati, bu fanni va umuman tarixni tadqiq qilishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masalalar xususida so'z boradi. Tarix – bu insonlarning o'tmishdagi faoliyati, tarix fani esa shu faoliyatni tadqiq qiladigan fan. Tarixning asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan xolislik tarixni yozishda juda muhim sanaladi. Lekin ko'pgina tarixiy asarlarda aynan shu tamoyilga amal qilinmaganligini ko'rishimiz mumkin. Bunga subyektiv omillar sabab bo'ladi. Ya'ni tarixchi tarixni yaratishda o'zi yashayotgan davr va jamiyatda hukm surayotgan maskura va, albatta, o'zining dunyoqarashidan kelib chiqqan holda yondashadi. Insonniing tafakkuri fikrkash asosida rivojlanadi.

Kalit so'zlar: nazariya, dunyoqarash, tafakkur, makon va zamon, borliq, tarixiylik, ilmiylik, xolislik, betaraflik, vaqt, jamiyat.

РОЛЬ ТЕОРИИ В ИСТОРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

Аннотация. В статье говорится о значении исторической науки в настоящем времени, о вопросах, на которые следует обратить внимание при исследовании этой науки и истории в целом. История есть деятельность людей в прошлом, а историческая наука есть наука, изучающая эту деятельность. Беспристрастность, которая является одним из основных принципов истории, очень важна при написании истории. Но мы видим, что этот принцип не соблюдается во многих исторических работах. Это вызвано субъективными факторами. То есть историк подходит к созданию истории исходя из сложившейся идеологии эпохи и общества и, конечно же, собственного мировоззрения. Сознание человека развивается на основе мышления.

Ключевые слова: теория, мировоззрение, мышление, пространство и время, бытие, историчность, научность, объективность, нейтральность, время, общество.

THE ROLE OF THEORY IN HISTORICAL RESEARCH

Abstract. The article talks about the importance of historical science at the present time, about the issues that should be paid attention to in the study of this science and history in general. History is the activity of people in the past, and historical science is the science that studies this activity. Equanimity, which is one of the basic principles of history, is very important when writing history. But we see that this principle is not observed in many historical works. This is due to subjective factors. That is, the historian approaches the creation of history based on the prevailing ideology of the era and society and, of course, his own worldview. Human consciousness develops on the basis of thinking.

Keywords: theory, worldview, thinking, space and time, existence, historicity, scientific character, objectivity, neutrality, time, society.

KIRISH

Nazariya bu – borliq va sub'ektiv dunyo va ularning obrazlarini yaratilishini tushuntiradigan g'oyalalar tizimi. Insonning dunyoqarashi eng katta nazariy tizim bo'lib, aynan uning bosh g'oyalari boshqa barcha nazariy tuzilmalarni, jumladan, tarixiy tuzilmani

belgilaydi. O'tmish tarix insonning dunyo manzarasiga kiradi, shu sababli har bir yangi dunyoqarash o'tmishning o'z obrazini yaratadi. Xo'sh tarixiy nazariya nima va u qanday shakllanadi. Tarix nazariyasini yaratish birdaniga yuz bermaydi. Buning uchun ma'lum vaqt va qulay muhit ya'ni dalillar kerak bo'ladi. Tarixiy nazariya – dalillar asosida quriladigan qurilma bo'lib, u tarixiy bilimni haqiqiyligi, ilmiyligi va nazariy-amaliy jihatdan asoslangani bilan qiymatga ega bo'ladi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Nazariya — bilimning biror sohasiga oid asosiy g'oyalar tizimi; voqelik qonuniyatlar va undagi muhim aloqalar haqida bir butun tasavvur beradigan bilim shakli. Nazariya borliqning muayyan sohasiga oid bo'lgan tajribalardan umumlashtirilgan ma'lumotlar asosida kelib chiqadi. Ilmiy bilishda nazariyaning asosiy vazifasi tajribalar bergan dalillarni izohlash, shu bilan birga, narsa va hodisalarning mohiyatiga chuqurroq kirib borish, yuzaga keladigan yangi narsa va hodisalarni oldindan ko'ra olishdan iborat. Har qanday nazariya ilmiy bilishning natijasi sifatidagi bilish shakli bo'lsada, lekin uni tugallangan, o'zgarmas, mutlaq bilim deb qaramaslik kerak.

Nazariya – bu bilish jarayonida biz to'plagan bilimlarning natijasigina emas, balki yangi bilimlar hosil qilish yo'llidagi boshlang'ich asosdir. Nazariya hamma vaqt amaliyat bilan uzviy bog'lik bo'ladi va shundagina u harakat va rivojlanishning quroliga aylanadi. Nazariyaning boshlang'ich shakli gipotezadir. Amaliyotda gipotezaning to'g'ri, haqiqat ekanligi isbotlansa, shu asosda yangi nazariya yuzaga kelishi mumkin. Ilmiy bilish jarayonida kishilarning ilmiy nazariyalar bilan qurollanganligi unga ilmiy oldindan ko'rish — ilmiy bashorat qilish imkoniyatini beradi. Bu esa, o'z navbatida, yangi qonuniyat va yangi nazariyalarning shakllanishiga olib keladi.

TADQIQOT NATIJALARI

Insonning tafakkuri fikrlash asosida rivojlanadi. Fikrlash esa ma'lum bir tarixiy voqelikni tasavvur qilishga imkon beradigan qandaydir bir tarixiy dalilni o'rganish asosida yuz beradi. Robin Kollingvud shunday ta'kidayi: "Tarixiy fikrlash- bu o'zligini anglash funksiyasi yoki vazifasini bajaradigan faoliyat ,tafakkur shakli, u faqat tarixiy fikrlashni anglaydigan ongga tegishli" Demak, tarixiy ong tarixiy o'tmishni bilish uchun olingan bilimlar asosida shakllanadi. Tarixiy tafakkurni rivojlanishi uchun umum e'tirof etilgan tarixiy taraqqiyot nazariyalarini bilish va ulardan tarixiy taraqqiyot jarayonlarini o'rganishda yoki tahlil qilganda foydalanish ko'nikmasini shakllantirish kerak bo'ladi. Agar odam tarixiy bilimga ega bo'lmasa unda tarixiy mushohada bo'lmaydi va u tarixiy tafakkurga ega bo'lmaydi.

«Tarixiy nazariya» tushunchasi hozirgacha munozarali va ilmiy hamda falsafiy adabiyotda shakllanmagan hisoblanadi. Ammo tarixiy nazariyalarning vazifasi sifatida quyidagi unsurlarni ko'rsatish mumkin:

1. Tizimlarda farqlarni belgilaydi;
2. Bir sifat tizimidan boshqasiga o'tishni ko'rsatadi (misol uchun, ijtimoiy-tarixiy formatsiyalarning rivojlaxiish qonuni);
3. Tarix fanining qonunlarini aks ettirgan nazariyalar. Nazariyaning asosiy funksiyasi ilmiy-amaliy tushuntirish. Haqiqatni, qonunlami, sabablarni izlash maqsadida oldindan aytish. Obyektning mohiyati, qonuniyatlarini aks ettiradigan tizimdir. Bu tizim ma'lum predmetning mohiyat-mazmunini ochish muammosini yechishga qaratilgan. Nazariya voqelikni aks ettirib o'zi ham o'zgaradi, ko'chib o'tadi.

Har qanday ilmiy metod ma'lum bir nazariya asosida ishlab chiqiladi. Nazariya bu bilim sohasida fanda qonuniyatlar va jiddiy aloqalar to'grisida yaxlit tasavvur beradi. Nazariy bilim amaliyotda tizimlashadi, buyumlashadi va obyektivlashadi. Nazariya va metodning bir-biriga o'xhashligi mavjud. Ular o'zaro bogliq bo'ladi.

Tarixiy voqealar qaysidir makonda va zamonda ro'y beradi. Tarixiy voqe – bu bizning fikrimizcha insoniyat o'tmishidagi insonlar faoliyatining vaqtida va joyda aks etishi. Bir vaqtning o'zida turli joylarda va turli insonlar hayotida ko'pgina voqealar sodir bo'ladi va har biri insoniyat taqdiriga va kelajak hayotga qandaydir darajada katta va kichik ko'lamda ta'sir qiladi. Bu voqe hodisalarni butunligicha o'rganish va tasavvur qilishning iloji yo'q. Ammo tarixchi o'zi muhim deb hisoblagan, yoki jamiyat taraqqiyoti va tanazzuliga sabab bo'lgan voqelarni tasvirlaydi, tadqiq qiladi. Jadid ajdodlarimizdan Abdurauf Fitrat aytganidek "Tarix millatlarning o'tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarining sabablarini o'rganaturg'on ilmdir".

Tarixiy voqealarga agar hech qanday subyektiv baho berilmasa bu tarixiy asar emas, balki xronologik asar bo'lib qoladi. Barcha tarixiy asarlar qaysidir jamiyat va mafkura doirasida yaratiladi hamda voqe-hodisaga ijobiy yoki salbiy deya baho beriladi. Voqeaning ijobiy yoki salbiy ekanligi nisbiy bo'lib, bu qarashlar va subyektning hodisaga nisbatan munosabatiga bog'liq. Masalan qaysidir davrda mumkin bo'limgan, bajarishning imkonni bo'limgan faoliyat turlari, fan hali aniqlamagan kashfiyotlar, tabiiy va aniq fanlardagi yutuqlar ham tarixiy dunyoqarashga ta'sir qiladi. *Gegelning inson tafakkuri to'g'risidagi fikrlari e'tiborga loyiq. Insonning fikri ko'pincha oqilona fikrashdan uzoq bo'ladi deb hisoblanadi.*

Biz ham tarixni o'rganish va uni tahlil qilishda ayni zamonda mavjud bilimlarimiz, texnik va ilmiy yutuqlarimiz hamda siyosiy va ma'naviy holatimizdan kelib chiqib baholashdek kamchiliklarga yo'l qo'yamiz. Tarixchi bunday kamchiliklarga yo'l qo'ymasligi uchun o'rganilayotgan davrni umumiyl holatini: siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, mafkuraviy va albatta, texnik taraqqiyot darajasini hisobga olishi kerak.

Tarixiy manbalar ham xuddi shunday tahlil va tadqiq qilish kerak. Tarixiy voqeaning asl mohiyatini va uning jamiyat hayotiga ta'sirini o'rganishda manba nafaqat mazmunan, balki yaratilgan vaqt va jamiyat, ayni jamiyatdagi hukmron mafkura, jamiyatning rivojlanish darajasi, iqtisodiy holati hisobga olinishi kerak.

Butun insoniyat tarixini bir butunlikda tasavvur qilish kerak. Bunda bir insonning borlig'i uning uchun butun dunyo hisoblanishini ham inobatga olishimiz kerak. Har bir inson o'z borlig'ida yashaydi. Voqealar ma'um qonuniyatlar asosida yuz beradi, uning sababiyatlari esa insonlar tomonidan amalga oshiriladi. Butun dunyo bir umumiyl qonuniyat asosida harakatlanadi. Bu qonuniyat esa inson tomonidan aniqlanishi va tushunilishi mumkin bo'limgan bir tizimga ega.

Tarixiy voqealarga agar hech qanday subyektiv baho berilmasa bu tarixiy asar emas, balki xronologiik asar bo'lib qoladi. Barcha tarixiy asarlar qaysidir jamiyat va mafkura doirasida yaratiladi hamda voqe-hodisaga ijobiy yoki salbiy deya baho beriladi.

MUHOKAMA

Voqeaning ijobiy yoki salbiy ekanligi nisbiy bo'lib, bu qarashlar va subyektning hodisaga nisbatan munosabatiga bog'liq. Masalan qaysidir davrda mumkin bo'limgan, bajarishning imkonni bo'limgan faoliyat turlari, fan hali aniqlamagan kashfiyotlar, tabiiy va aniq fanlardagi yutuqlar ham tarixiy dunyoqarashga ta'sir qiladi. *Gegelning inson tafakkuri to'g'risidagi fikrlari e'tiborga loyiq. Insonning fikri ko'pincha oqilona fikrashdan uzoq bo'ladi deb hisoblanadi.*

Biz ham tarixni o'rganish va uni tahlil qilishda ayni zamonda mavjud bilimlarimiz, texnik va ilmiy yutuqlarimiz hamda siyosiy va ma'naviy holatimizdan kelib chiqib baholashdek kamchiliklarga yo'l qo'yamiz. Tarixchi bunday kamchiliklarga yo'l qo'ymasligi uchun o'rganilayotgan davrni umumiy holatini: siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, mafkuraviy va albatta, texnik taraqqiyot darajasini hisobga olishi kerak.

Tarixiy manbalar ham xuddi shunday tahlil va tadqiq qilish kerak. Tarixiy voqeanning asl mohiyatini va uning jamiyat hayotiga ta'sirini o'rganishda manba nafaqat mazmunan, balki yaratilgan vaqt va jamiyat, ayni jamiyatdagi hukmron mafkura, jamiyatning rivojlanish darajasi, iqtisodiy holati hisobga olinishi kerak.

Butun insoniyat tarixini bir butunlikda tasavvur qilish kerak. Bunda bir insonning borlig'i uning uchun butun dunyo hisoblanishini ham inobatga olishimiz kerak. Har bir inson o'z borlig'ida yashaydi. Voqealar ma'um qonuniyatlar asosida yuz beradi, uning sababiyatlari esa insonlar tomonidan amalga oshiriladi. Butn dunyo bir umumiy qonuniyat asosida harakatlanadi. Bu qonuniyat esa inson tomonidan aniqlanishi va tushunilishi mumkin bo'limgan bir tizimga ega.

XULOSA

Butun insoniyat tarixini yaxlit tasavvur qilish juda qiyin, balki mumkin bo'limgan narsa. Zamon va makon birligida insoniyat tarixini tahlil qilganimizda nazariy jihatdan biz foydalanadigan o'lchovlar qaysidir ma'noda tarixiy jarayonni baholashda o'rinni bo'lishi mumkin, lekin ayni jarayonni to'laligicha yorita olmaydi. Har qanday tarixiy hodisani tahlil qilganimizda biz faqat ushbu hodisa sabab, oqibatlari xusida fikr yuritishimiz yetarli bo'lmasligi mumkin. Ushbu hodisada ishtirok etayongan insonlarning ichki holatlari va tasodifiy vaziyatlar hamda boshqa biz ko'zdan qochirgan yoki aniq bila olmaydigan elementlar tarixiy hodisaga katta ta'sir ko'rsatgan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Shundan xulosa qiladigan bo'lsak, tarixni umumiy va to'liq nazariy yoritish, tarixiy hodisa va jarayonlarga baho berish, ulardan xulosa chiqarish faqatgina nisbiydir. Bunda o'rganilayotgan tadqiqotchining kimligi, uning qaysi davr va qanday jamiyatda yashayotganligi ham ta'sir o'tkazishini inobatga oladishimiz kerak.

Tarix inson uchun doimo to'plangan tajriba va bilim hamda saboq bo'lib xizmat qilishi mumkin.

REFERENCES

1. НОВОЕ ПРОШЛОЕ • THENEWPAST • № 1 2 0 1 9 УДК 930.1 DOI: 10.23683/2500-3224-2019-1
2. Коллингвуд Р. Идея истории. Автобиография. М., 1980. С. 484
3. Shermuhamedova. N "Falsafa va fan metodologoyasi" Т.: «Aloqachi», 2008. 400 bet.
4. Теория и методология истории: учебник для вузов / Отв. ред. В. В. Алексеев, Н. Н. Крадин, А. В. Коротаев, Л. Е. Гринин. – Волгоград: Учитель, 2014 – 504 с.
5. Rajabov R, Abuyev H, Qurbonov X "Tarix fani metodologiyasi" Т.: "Yangi asr avlodi" 2018 400 bet